

KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILNING NAZARIY ASOSLARI

Muratxodjaeva Feruzaxon Xotamovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Oriental universiteti, G'arb tillari kafedrası dosenti

Kognitiv tilshunoslikka doir tadqiqotlarda kognitiv yondashuv asoslari ko'rsatib berilgan. Kognitiv tilshunoslik kognitologiya va tilshunoslik integrasiyasi asosida yuzaga kelgan soha bo'lib, uning masalalari semantika, psixolingvistika, etnolingvistika, pragmatolingvistika, lingvokulturologiyaga oid bilimlarni qamrab oladi. Kognitiv tilshunoslik asosida konsept tahlili yotadi. Konseptning o'zi ham tafakkur birligi sifatida baholanmoqda.

Konsept – aqliy bilimga, ijtimoiy-siyosiy, lisoniy-madaniy munosabatlarga, olamni mental tafakkur orqali anglashga asoslangan xotira, bilim majmui, til va nutqda namoyon bo'luvchi olam manzarasidir. Jahon va o'zbek tilshunosligida lisoniy birliklar semantikasi va lisoniy hodisalarni konsept asosida tadqiq etish keng doirada amalga oshirilmoqda. *Konsept* termini uch xil semantikani namoyon etadi:

1.Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan – inson ongining milliy-madaniy imkoniyatlari, bilim va tajribasi asosida shakllangan axborot tizimi birligi sifatida; 2. Lingvokulturologiyada: mental belgilarga hamda lingvistik birliklarda ifodalanadigan, etnomadaniy xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy ong birligi sifatida; 3. Psixolingvistika nuqtai nazaridan – insonning bilish va muloqot faoliyati natijasi bo'lgan, tafakkur qonuniyatiga bo'ysunuvchi preseptiv-kognitiv-affektiv tuzilma sifatida baholanadi.

Konsept tushunchasining fanga kirib kelishi kognitiv tilshunoslik bilan bog'liq. Konsept nazariyasi va uning yondosh tushunchalarga munosabati bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. V.Karasik konseptni shaxs, diskurs bilan aloqadorlikda til sferasini tashkil etuvchilar sifatida talqin qildi. Yu.Stepanov konseptni til va mentallik munosabatlarini ta'minlovchi omil sifatida baholadi. S.Ter-Minasova konseptni lingvokulturologiya doirasidagi masalalar negizida tavsifladi.

A. Abduazizov konsept ko'lamining kattaligini, ma'no bilan birgalikda obrazni ham qamrab olishini qayd etadi.

Konsept o'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarning ham markaziy masalasi sifatida belgilandi. Sh.Safarov izlanishlarida kognitiv konseptning nazariy masalalari, uning ta'rifi, tavsifi tahlil qilingan bo'lsa, N.To'xtaxo'jaeva dissertasiyasida lingvokulturologik konseptning tarjima qilingan badiiy matnlardagi tadqiqi amalga oshirilgan. Lisoniy hodisalarni konseptual yondashuv asosida tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarda konseptning yana bir turi – aksiologik konsept haqida fikr yuritilgan. Mazkur tadqiqotlarga asoslanib, konseptning to'rt turini fraqlash mumkin:

1.Kognitiv konsept – bilim va tajribaga asoslangan, inson aqli, idroki, liosniy ongining mental imkoniyatlari aks etgan fundamental tizim.

2. Psixolingvistik konsept – lisoniy ong imkoniyatlari bilan belgilanuvchi va muloqot jarayonida reallashadigan, tafakkur qonuniyatiga bo‘ysunadigan psixik-fiziologik tizim.

3. Lingvokulturologik konsept – lisonda voqelanadigan, mental, etnomadaniy belgilarga ega bo‘lgan tafakkur birligi.

4. Aksiologik konsept – etik-estetik kategoriyalarning mahsuli sifatida derektiv xususitga ega bo‘lgan madaniy qadriyatlarni ifoda etuvchi konsept.

Kognitiv konsept barcha konseptlarga asosida turadigan idrok mahsulidir. Shu bois uni konsept turi sifatida ajratish ham nisbiydir. Psixolingvistik konsept nutq mexanizmi va nutq faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, idrok etish va kognitiv qobiliyat orqali namoyon bo‘ladi. Aksiologik konsept tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, lisoniy ongda aks etgan axloqiy-ma’naviy qadriyatlarni ifodalaydi. Lingvokulturologik konsept milliy-madaniy munosabatlar va mental idrok bilan bog‘liqdir.

Kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya yo‘nalishidagi tadqiqotlarning muhim masalalaridan biri “konsept” va “tushuncha” terminlari munosabati masalasidir. *Konsept* terminiga ta’rif berilganda ko‘p hollarda unga nisbatan “tushuncha” so‘zi qo‘llanadi. Bu terminlarni umumlashtiruvchi belgilar:

1. Har ikkisi ham tafakkur birligi.

2. Boshlang‘ich asosi narsa-buyum haqidagi bilim va obrazli tasavvur bilan bog‘liq.

Konsept va tushunchaning farqli jihatlari:

1. Konsept ko‘lami tushunchaga nisbatan keng: *konsept > tushuncha*. Konsept tushunchani o‘z ichiga qamrab oladi. Konsept asosida tushuncha bilan bir qatorda obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi.

2. Konsept chegarasi individul obraz shakllanishidan lisoniy birlik qolipida reallashuvigacha bo‘lgan ko‘lamni qamrab oladi. Tushuncha esa lisoniy birlik ko‘rinishida reallashishgacha bo‘lgan ko‘lamni aks ettiradi.

Konsept – mental tuzilma bo‘lib, u tarkibdagi va ko‘rinishdagi bilimlar umumlashmasidir. Konseptning tizimlilik xususiyati murkkab tuzilishida va mental tuzilma sifatida idrok etilishi bilan belgilanadi.

Konsept turli bilimlar bilan kengayib boruvchi murakkab tuzilma hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslikka doir bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi.

Keyingi yillarda qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslikka oid tadqiqotlar ko‘lami kengaymoqda. Qiyosiy tilshunoslik asoschisi Mahmud Koshg‘ariy bo‘lib, bu sohaga oid tadqiqotlar I.A. Boduen de Kurtene, L.V. Shcherba, E.D. Polivanovlar tomonidan davom ettirildi. Qiyosiy tilshunoslik qardosh tillar taraqqiyotidagi umumiy muammolarni belgilashda, xususiy belgilarni yoritishda ahamiyatlidir.

Chog‘ishtirma tilshunoslik turli genetik asoslarga oid tillarni qiyoslashga qaratilgan alohida yo‘nalish hisoblanadi.

Qiyosiy tilshunoslik tillarni qiyoslashda tarixiy aspektda ham yondashadi. Chog‘ishtirma tilshunoslik sinxron plandagi tadqiqotga asoslanadi. Chog‘ishtirma tilshunoslik ikkita har xil guruhga mansub tillarni qiyoslab, ular o‘rtasidagi umumiy va

farqlanuvchi belgilarni ajratib tahlil qiladi. Universalialar va spesifik belgilarni izohlaydi, ilmiy jihatdan asoslaydi. Chog‘ishtirma tilshunoslik tillarning fonetik-fonologik, leksik-semantik, sintaktik xususiyatlarini tadqiq qilishga qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Muratkhodjayeva, F. (2024). Cognitive Linguistics Theory in Anthropocentric Paradigm. *International Journal of Industrial Engineering, Technology & Operations Management*, 2(2), 63-70.

2.Xotamovna, M. F. (2025). COGNITIVE PSYCHOLOGY AND COGNITIVE LINGUISTICS INTERACTION WITH OTHER DISCIPLINES. *PEDAGOG*, 8(1), 105-108.

3.Xotamovna, M. F. (2025). KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILNING NAZARIY ASOSLARI. *SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 8(1), 188-190.

4.Hotamovna, F. (2024). Cognitive-semantic analysis of technical terms combinations and their expression for training engineers. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 84, p. 04027). EDP Sciences.